

O`ZBEK TILI FANIDA NUTQ O`STIRISHGA QARATILGAN METODLARDAN FOYDALANISH

Yakubdjanova Gulnoz Muradovna

Toshkent shahar Mirobod tumani 110- sonli IDUM o`zbek tili fani o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o`zbek tili fanida nutq o`stirishga qaratilgan metodlardan foydalanish samarasi haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *o`zbek tili, interfaol usullar, nutq, qiziqish, fikr, e`tibor...*

Ma'lumki, nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shaklidir. Nutq deganda uning og`zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo`lishidagi jarayonlar, ya'ni so`zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. Nutq o`stirish esa tilning qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa, o`zbek tilini o`rgatishda rusiy zabon o`quvchilarning nutqini o`stirish muhim ahamiyatga ega. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o`quvchilar nutqini o`stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo`lishi kerak. O`quvchilar nutqini o`stirishning metodik talabi o`quvchi o`z fikrini, nimanidir og`zaki va yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo`lishi lozim. Bu material qanchalik to`liq, boy, qimmatli bo`lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo`ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so`z, so`zbirikmasi, gap, nutq axborotlari yordamida ifodalasagina tushunarli bo`ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o`stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini o`zlashtirish.

2. Jamiyatimizning har bir a`zosi uchun zarur bo`lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o`qish va yozish malakalarini o`zlashtirish.

3. O`quvchilar nutqmadaniyatini takomillashtirish. Nutq o`stirishda uch yo`nalish aniq ajraladi:

-so`z ustida ishlash;

-so`z birikmasi va gap ustida ishlash;

-bog`lanishli nutq ustida ishlash.

O`quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o`sib boradi. Ravon, ixcham, ta`sirli nutq tinglovchiga huzur bag`ishlaydi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o`z o`quvchilarini ana shunday so`zlashga o`rgatishdir.

Boshlang'ich ta'limda o'zbek tili darslarida asosiy diqqat bolaning nutq va lug'at boyligini o'stirish, imloviy savodxonligini tarkib toptirish, ya'ni to'g'ri o'qish va yozish hamda husnixat ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Leksik – grammatik mashq va o'yinlar

“So'zni yakunla”. O'rganiblayotgan mavzu bo'yicha lug'atni o'zlashtirish: ko'y . . . , yub . . . , qal . . . , tuf . . . , et . . . , shi . . . , bo' . . . , pay . . . , xa . . . , jem . . . , kurt . . . , qo'l . . . va h.k.

“Sayrga nima kiyib chiqamiz?” Kiyimoq fe'lini o'zlashtirish.

Bollalarning qo'llarida rasmlar mavjud. O'qituvchi savol beradi:

“Sen nima kiyasan, Dildora-chi?”

Bola esa javob beradi:

“Men futbolka kiyaman, Dildora esa ko'ylak kiyadi”.

“Qanday kiyim?”

Kiyim so'ziga mos keluvchi sifatga oid so'zlarni topish: ust . . . , bola . . . , kat . . . , ayol . . . , er . . . , spo . . . , mavsu . . . , qish . . . ,

yoz . . . , kuz . . . , bahor . . . , if . . . , to . . . , bayra . . . , is . . . , chiroy . . . va h.k.

“Aksini ayt”.

O'rganilayotgan mavzu bo'yicha fe'llarni o'zlashtirish: kiyimoq – yechmoq, sotib olmoq – sotib yubormoq, boylamoq – yechmoq, taqmoq – yechmoq, dazmollamoq – g'ijimlamoq, osmoq – yig'ishtirmoq, yuvmoq – kir qilmoq, taxlamoq – yoymoq.

“Mos so'zni top”. Kiyim so'ziga mos keluvchi fe'lni topish: kiyimoq, yechmoq, sotib olmoq, tikmoq, to'qimoq, kiyib yurmoq, taqmoq, dazmollamoq, yamoq solmoq, yuvmoq, quritmoq, osmoq va h.k.

“Nima yetishmayapti?” Kiyim-kechak, oyoq va bosh kiyimlarining qismlari bilan tanishtirish. Bosh kelishikdagi so'zlarni o'zlashtirish.

Badiiy asarni sahnalashtirish turlari va uni ko'rsatish metodlari

Badiiy asarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Sahnalashtirish o'yinlari, bu bolalaming mustaqil ijodiy o'yin

turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga

bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom va o'z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalaming harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jamyoniga kirib boradilar, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador

bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi

ijobiy fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalaming nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalaming yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi.

2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollaming soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo'lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko'p bo'lishi.
5. Ifodali o'qishga mos bo'lishi.
6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog'langan bo'lmog'i zarur.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko'radilar. Masalan, «Sholg'om», «Zumrad va Qimmat», «Bo'g'irsoq» va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda (qo'g'irchoq,

soya, soya teatri orqali) sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asami eslab qolishlari uchun uni qayta qo'yib berish, sahnada ko'rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniladi. yordam beradi.

Pilus -minus metodi

“Majhul nisbat” mavzusi biroz murakkabroq bo'lib, o'quvchilar majhul nisbatni o'zlik nisbatidan ajrata olishlari lozim. Chunki ularning qo'shimchalari bir xil: -(i)n, (i)l. Bunda biz “Pilus-minus” metodidan foydalanishimiz mumkin. Masalan, “yuvindi” so'zi o'zlik nisbatda, chunki unga shaxsini qo'yishimiz mumkin: Dildora yuvindi. Xuddi shu so'zni majhul nisbatga aylantiramiz: yuvildi.

Lekin bu so'zga shaxs qo'ya olmaymiz, demak, bajaruvchisi noma'lum. O'quvchilarga jadval beriladi, agar berilgan fe'lning shaxsini qo'ya olsak “+”, ya'ni o'zlik nisbatda, shaxsini qo'ya olmasak “-”, majhul nisbatda ekanligini aniqlash kerak bo'ladi.

Namuna.

Yozildi	-	Majhul nisbat – shaxsi noma'lum
Ko'rindi	+	O'zlik nisbati – U ko'rindi
Bajarildi	-	Majhul nisbat – shaxsi noma'lum
Shoshildi	+	O'zlik nisbati – Aziza shoshildi
Yuborildi	-	Majhul nisbat – shaxsi noma'lum

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol

metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan

foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”,

“BBXB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimni

oshirishga yordam beradi. Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

Darsda interaktiv usullar qo'llashni shunday tashkil etish kerakki, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hisoblanadi. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi.

Sanalib o'tilgan metodlarimiz ayniqsa, ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega .

Bu metodlar orqali o'quvchilar faqat bilim olib qolmasdan olgan bilimlarini kelajakda qo'llay olish malakasini rivojlantiradi. Hayotda o'ziga ishonch bilan qarashga o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktik-uslubiy masalalari. Toshkent, "Tafakkur", 1998 yil.

2 . Ya n gi pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammolari va yechimlari. Toshkent, 1999 yil.

3.B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006-yil

4.I.H o l muro do v . Ona tili fani bo'yicha o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 yil, 2-son,